



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-oktabr

574-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PQ-362-son qarori ijrosi haqida”gi 489-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PQ-362-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 489-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 16-oktyabrdagi PQ-362-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 489-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-oktyabrdagi PQ-362-son qarori bilan:

Quydagilarga:

Umumjahon pochta ittifoqining umumiy reglamentiga ikkinchi qo‘shimcha bayonnomaga (Addis-Abeba, 2018-yil 7-sentabr);

Umumjahon pochta ittifoqining umumiy reglamentiga uchinchi qo‘shimcha bayonnomaga (Abidjan, 2021-yil 26-avgust);

Umumjahon pochta konvensiyasiga (Abidjan, 2021-yil 26-avgust);

Umumjahon pochta konvensiyasiga yakuniy bayonnomaga (Abidjan, 2021-yil 26-avgust);

Pochta to‘lov xizmatlari to‘g‘risidagi bitimga (Abidjan, 2021-yil 26-avgust);

Pochta to‘lov xizmatlari to‘g‘risidagi bitimga yakuniy bayonnomaga (Abidjan, 2021-yil 26-avgust) qo‘shilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Raqamli texnologiyalar vazirligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas'ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi Umumjahon pochta ittifoqi Xalqaro byurosining Bosh direktoriga O‘zbekiston Respublikasining mazkur xalqaro shartnomalarga qo‘shilganligi to‘g‘risida tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirgandan keyin ularning qoidalari bajarilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta'minlashi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov